IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 2 May 2026

“ALPOMISH” VA “BEOWULF” DOSTONLARIDA FOLKLOR POETIKASINING O’RNI VA AHAMIYATI

Davlatova Nilufar Matmurotovna
Urganch RANCH Texnologiya Universiteti I kurs magistr talabasi
Email: Nilufardavletova076@gmail.com
Tel: +998 93 288 66 28

Norboyev O‘ktam Safarboyevich
Urganch RANCH texnologiya universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Email: norboyevuktam1982@gmail.com
Tel: +998 93 922 87 32
ORCID: 0009-0002-6809-11

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek xalq epik merosining muhim namunalaridan hisoblangan “Alpomish” va “Beowulf” dostonlari folklor poetikasi o‘rganiladi. Tadqiqot davomida ushbu dostonlardagi qahramonlik, ijtimoiy va diniy motivlar, qolaversa, epik struktura va badiiy vositalar, asar syujeti, qahramonlar obrazi, epik motivlar tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu maqolada dostonlarning xalq og‘zaki ijodidagi o‘rni va ularning madaniy ahamiyati haqida bayon qilinadi.
Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, qahramonlik eposi, folklor poetikasi, epik motiv, qiyosiy adabiyotshunoslik.

Abstract. This article examines the folklore poetics of Alpomish and Beowulf, which are considered significant examples of Uzbek and English epic heritage. The study analyzes heroic, social, and religious motifs in these epics, as well as their epic structure, artistic devices, plot, character images, and epic motifs. In addition, the article discusses the place of these epics in oral folk literature and their cultural significance.
Keywords: oral folk literature, heroic epic, folklore poetics, epic motif, comparative literary studies.

Аннотация. В данной статье исследуется фольклорная поэтика эпосов «Алпомыш» и «Беовульф», являющихся важными образцами английского и узбекского народного эпического наследия. В ходе исследования анализируются героические, социальные и религиозные мотивы этих эпосов, а также их эпическая структура, художественные средства, сюжет, образы героев и эпические мотивы. Кроме того, в статье освещается место данных эпосов в устном народном творчестве и их культурное значение.
Ключевые слова: устное народное творчество, героический эпос, фольклорная поэтика, эпический мотив, сравнительное литературоведение.

Kirish. Xalq og‘zaki ijodi har bir xalqning tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlari va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim badiiy manbalardan biridir. Epik dostonlar, xususan, qahramonlik eposlari, xalq idealini va milliy qadriyatlarni badiiy shaklda ifodalaydi. Folklor poetikasi esa ushbu dostonlarni shakllantiruvchi asosiy vositalardan biri bo‘lib, xalqning estetik va ma’naviy tajribasini ifodalaydi.

Geografik masofalar, etnik farqlar, diniy qarashlar va tarixiy sharoitlar bir-biridan keskin farq qilsa-da, ushbu ikki dostonning tub mohiyati va ularda mujassam bo‘lgan epik strukturalar o‘rtasida etiborga molik tipologik yaqinliklar mavjud[5,6].

“Alpomish” va “Beowulf” dostonlari turli davr va hududlarda yaratilgan bo‘lsa-da, ularning syujeti, qahramonlik g‘oyalari va epik motivlarida o‘xshashliklar mavjud. Ushbu maqolada dostonlar folklor poetikasi kontekstida tahlil qilinadi.

“Alpomish” dostonida folklor poetikasi. Qahramonning mo‘jizaviy tug‘ilishi: Alpomish tug‘ilishi oddiy emas, Tangri tomonidan ixtiyoriy ravishda berilgan. Boybo‘ri va Boysari uzoq vaqt farzandsiz bo‘lishadi, duo va niyatlar orqali farzand so‘rashadi. Shohimardon piriga borib, iltijo qiladilar va buning natijada Alpomish ham dunyoga keladi. Demakki, mo‘jizaviy qahramonning tug’ilishi ham mo‘jizaga boy ekan. Bolalik va jasorat: Alpomish hali yoshligidayoq katta kuchga ega bo‘lib, o‘n ikki yoshida Asqar tog‘ga o‘q otib uning uchini uchirib yuboradi. To‘y marosimlarida ham folklorga oid bir qator o‘rinlarni ko‘rish mumkin. Alpomish va Barichinning to‘yi 40 kecha-kunduz davom etadi. Bu esa xalq an’analarini aks ettiradi. Dostonda diniy va ijtimoiy motivlarni ham ko‘rishimiz mumkin. Dostonda pirga borib farzand so‘rash, duo qilish, xalqning qadriyatlari va e’tiqodlari bo‘lib, bu ham folklor namunasi sanaladi.

“Beowulf” dostonida folklor poetikasi. Mo‘jizaviy va epik qahramon: Beowulf qahramonligi mo‘jizaviy ravishda tasvirlangan: Grendel va uning onasi bilan, shuningdek, ajdarho bilan janglar uning buyukligini ko‘rsatadi. Bu esa folklorga mansub xususiyatlardan biridir. Botqoqlar va yovuz mavjudotlar: Grendel, uning onasi va ajdarho kabi mavjudotlar epik dostonlarda xalq tasavvurlaridagi yovuz kuchlar va chaqiriqlarni ifodalaydi. Aynan shular ham folklorga oiddir. Bundan ko‘rinib turibdiki, dostonda folklor poetikasini ahamiyati nihoyatda katta.

Ijtimoiy va diniy kontekst: Hrothgar saroyi, Heorot zalidagi ziyofatlar, sovg‘alar berish va xalqning himoyasi kabi motivlar dostonni xalq og‘zaki ijodining badiiy makoniga aylantiradi.

- Mo‘jizaviy elementlar: Qahramonning qo‘l bilan Grendelni mag‘lub etishi, gigant qilich yordamida Grendelning onasini o‘ldirishi va ajdarho bilan so‘nggi jang.
- Qiyosiy-tipologik tahlil: Alpomish: Qahramonning tug‘ilishi, mo‘jizaviy, Tangri in’omi bilan. Yoshligidayoq kuch va jasoratini namoyon etadi. Beowulf: Normal tug‘ilish, lekin jasoratli, mo‘jizaviy hodisalarga boy, Yovuz mavjudotlar bilan jangler qiladi.
- Ijtimoiy motivlar: To‘y, duo, pirga borish, Heorot saroyi, ziyofat, sovg‘a berish, Fantastik elementlar, Kam, realistik epik, Ko‘p, yovuz maxluqlar va ajdarho.
- Folklor poetikasining badiiy va g‘oyaviy ahamiyati: Folklor poetikasida dostonlar qahramonlik va jasoratni yuksak badiiy shaklda ifodalaydi. Milliy e’tiqodlar va diniy qarashlarni aks ettiradi. Ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni targ‘ib qiladi.

Folklor qahramon obrazini xalq ongida abadiylashtiradi. “Alpomish” va “Beowulf” dostonlari butunlay boshqa madaniy va tarixiy muhitda shakllangan bo‘lishiga qaramay, epik tafakkurga xos ko‘plab umumiy arxetiplarni o‘zida mujassam etadi. Eng avvalo, har ikkala dostonda qahramonning kelib chiqishi ilohiy yoki taqdir tomonidan belgilangan shaxs sifatida talqin qilinadi. Qahramonning jamiyat hayotidagi o‘rni, uning sinovlarga duch kelishi, yovuz kuchlarga qarshi kurashi va xalqni xavfdan qutqarishi epik syujetning asosini tashkil etadi. Bu jihatlar dostonlarning asosiy kompozitsion va funksional yaqinligini taminlaydi.

Xulosa. “Alpomish” va “Beowulf” dostonlari folklor poetikasining boy namunalaridir. Ushbu asarlar: qahramonlik, mo‘jizaviy hodisalar, ijtimoiy va diniy motivlar orqali xalq og‘zaki ijodining asosiy xususiyatlarini namoyish etadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “Alpomish” dostonida folklor poetikasi ko‘proq realistik va diniy kontekstga bog‘langan bo‘lsa, “Beowulf” dostonida fantastik elementlar ustunlik qiladi. “Alpomish” turkiy epik ananasining ijtimoiy uygunlikka asoslangan optimistik qahramonlik modelini yaratgan bolsa, “Beowulf” german ananasining fojiali jangchi modelini mujassam etadi. Shu bilan birga, har ikki doston xalq

merosi sifatida qahramonlik idealini abadiylashtiradi va har birida folklorning o‘rni va ahamiyatini namoyish etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Epik anana va qahramonlik tafakkuri. Rahmonov N.// Toshkent: Fan, 2012. 290s.
2. Erkinov, B., O‘zbek xalq dostonlari: tarix va poetika, Toshkent, 2015.
3. Narbut, L., Folklor poetikasi va epik an’ana, Kyiv, 2008.
4. Zaydullaev, M., Alpomish va turkiy epik an’analari, Toshkent, 2010.
5. Beowulf. A New Verse Translation by Seamus Heaney.// New York: W. W. Norton & Company, 2000. 75 s.
6. Chadwick H. M., Chadwick N. K. The Growth of Literature. Vol. I.// The Ancient Literatures of Europe. Cambridge: Cambridge University Press, 1932. 512p.
7. Cross, J. & Tolkien, J.R.R., Beowulf: The Monsters and the Critics, 1936.
8. Chamberlain, L., Beowulf and its Cultural Context, Oxford, 2002.
9. "Alpomish" o‘zbek xalq qahramonlik dostoni. "Sharq" nashriyot matbaa konserni bosh tahririyati. Toshkent-1998.